



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
NAMANGAN VILOYATI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA
BANDLIK BOSHQARMASI
B U Y R U Q

2026 yil “7” yanvar

9-son

Namangan sh

**Tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini ta‘minlash
hamda xodimlarning ehtimoliy (yoki mavjud) manfaatlar to‘qnashuvi
to‘g‘risidagi deklaratsiyasini taqdim etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi **O‘RQ 931-son** va Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi **O‘RQ 788-son Qonunlari** hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **12.01.2022-yildagi PQ 81-sonli qarori**, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining (*keyingi o‘rinlarda – Vazirlik deb, yuritiladi*) **14.01.2025-yildagi 11-sonli** buyrug‘i hamda **18.12.2025-yildagi** ishlab chiqilib tasdiqlangan **20-383-sonli ishlar rejasini** ijrosini ta‘minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi **O‘RQ 931-son** va Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi **O‘RQ 788-son Qonunlari**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **12.01.2022-yildagi** “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ 81-sonli qarori**, shuningdek, Vazirlikning **14.01.2025-yildagi** “Vazirlik tizimida “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizomini tasdiqlash haqida”gi **11-sonli** buyrug‘i va **18.12.2025-yildagi** ishlab chiqilib tasdiqlangan “Vazirlik Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining 2026-yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini ta‘minlash yuzasidan amalga oshiriladigan” **20-383-sonli ishlar rejasi** rahbarlik, ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Namangan viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (*keyingi o‘rinlarda – Boshqarma deb, yuritiladi*) boshlig‘ining **o‘rinbosari (F.Yuldashev)**, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bosh mutaxassisi (**M.Homidov**), Bosh yuriskonsult (**S.Axmedova**) va Axborot xizmati bo‘yicha bosh mutaxassisi (**U.Qo‘shoqova**) ga:

- Boshqarma hamda tuman (shahar) kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan

(boshqaruv

va texnik) xodimlariga **Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi Qonuni 7-moddasi** "Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslarning manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish chog'idagi huquq va majburiyatlari"da belgilangan hamda;

- **Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi Qonuni 8-moddasi** "Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklovlar"da ko'rsatilgan talablariga rioya etishlari haqida, shuningdek;

- **Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi Qonuni** bilan belgilangan Davlat fuqarolik xizmatchisining majburiyatlari va Davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar hamda Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini tugatish asoslari haqida profilaktik tushuntirish ishlarini tashkillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish doirasidagi davra suhbatlari hamda uchrashuvlarni **joriy yilning yanvar – fevral oylarida, keyinchalik har chorakda** o'tkazilishi;

Boshqarmaning korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallarini, shuningdek, o'tkazilgan profilaktik tadbirlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida va uning oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlari **har chorakda** Boshqarmaning rasmiy veb-sahifalarida muntazam ravishda yuritilishi va boshqa Ommaviy axborot vositalarida ham ko'rsatib borilishi;

Televideniya, radio, mahalliy nashrlar va Ommaviy axborot vositalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chiqishlarini tashkillashtirish yuzasidan zaruriy choralari ko'rilsin.

3. Boshqarmaning bo'lim (yoki sho'ba) rahbarlari hamda tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish **bo'limlari boshliqlariga:**

- korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan tizimda mehnat faoliyatini olib borayotgan barcha rahbar – xodimlardan korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik va boshqa qonunlarda belgilangan talablariga rioya etilishi bo'yicha (*mazkur buyruqning 1-ilovasiga muvofiq, namuna shakda*) **kafolat xatlarini** olinishi;

- boshqaruv va texnik xodimlaridan qabul qilib olingan kafolat xatlarining **asl nusxasi** Boshqarmaning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish shu'basiga **30.01.2025-yilga qadar taqdim etilsin.**

4. Boshqarmaning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho'basi mudiri (F.Xoliqov), Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassisi (**M.Xomidov**) va Boshqarmaning bo'lim (yoki sho'ba) rahbarlari hamda tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish **bo'limlari boshliqlariga:**

- **Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi Qonuni 18-moddasi** "Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi"da belgilangan talablariga asosan, barcha (boshqaruv va texnik) xodimlardan

(mazkur buyruqning 2-ilovasiga muvofiq, *namuna shakda*) ehtimoliy (yoki mavjud) **manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi** (xabarnoma yoki) **deklaratsiyalari** qabul qilib olinishi;

- boshqaruv va texnik xodimlaridan qabul qilib olingan ehtimoliy (yoki mavjud) manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi (xabarnoma yoki) deklaratsiyalarning **asl nusxasi** Boshqarmaning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho'basiga **10.01.2026-yilga qadar taqdim etilishi**;

- vakant o'rinlarga kadrlarni tanlov asosida qabul qilishni nazorat qilish;

- rasmiy veb-saytda ishga qabul qilish, rotatsiya to'g'risidagi e'lonlar va axborotlarni joylashtirish hamda mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilishini ta'minlash;

- korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish, ularning ta'qibga olinmasligini kafolatlash va ta'minlash borasidagi zaruriy chora-tadbirlar belgilansin.

5. Boshqarmaning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho'basi mudiri (F.Xoliqov) hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassisi (M.Xomidov)ga:

- Boshqarma hamda tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan (boshqaruv va texnik) xodimlaridan qabul qilib olingan ehtimoliy (yoki mavjud) manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarini umumlashtirish va tahliliy natijasi bo'yicha Boshqarma boshlig'iga **10.02.2025-yilga qadar** axborot berilsin.

6. Boshqarmaning Bosh yuriskonsult (S.Axmedova), Tashkiliy-nazorat bo'yicha sho'ba mudiri (Sh.Abdullayev), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho'basi mudiri (F.Xoliqov), Davlat mehnat inspeksiyasi boshlig'ining o'rinbosari (Z.Umarov) va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassisi (M.Xomidov) hamda tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari boshliqlariga:

- Korrupsiyaga qarshi kurashishga doir va ijro intizomi bilan bog'liq Boshqarma hamda tuman (shahar)kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarining ichki idoraviy hujjatlarning mavjudligi va ularni zaruratga qarab yangilab borish;

- tizimga oid normativ-huquqiy hujjat (buyruq)larni inventarizatsiya qilish va ularda korrupsiyaga oid holatlarni keltirib chiqaruvchi normalarni bartaraf etish;

- **2025-yilning 4-chorak va joriy yilning 1-chorak davomida** Boshqarma hamda tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarining buyruqlarini qabul qilinishiga asos bo'lib xizmat qilgan manbalarini hamda qabul qilingan buyruqlarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan amalga oshirilgan ishlari bo'yicha **joriy yilning yanvar – mart oylarida** o'rganishlari o'tkazilsin.

7. Boshqarma boshlig'ining tegishli buyrug'iga asosan, barcha o'tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlari va xizmat o'rganishlari bo'yicha shart-sharoitlarini yaratib berilishi hamda tadbirlar jarayonida zarur bo'lgan barcha hujjat va ma'lumotlarni taqdim etilishi, shuningdek, xodimlarning ishtirokini ta'minlash Boshqarmaning bo'lim (yoki sho'ba) **rahbarlari** hamda tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish **bo'limlari boshliqlari zimmasiga yuklatilsin;**

8. Boshqarmaning Inson resurslarini rivojlanitirish va boshqarish sho'basi mudiri (**F.Xoliqov**) hamda tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish **bo'limlari boshliqlariga:**

- **Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **12.01.2022-yildagi PQ 81-son qaroriga** asosan **5 ta** yo'nalishlarda taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qilinib, umumlashtirilgan holda "E-Anticor.uz" elektron platformasiga belgilangan tartibda kiritilishi yuklatilgan. **Shu munosabat bilan,** mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, **har oyning yakuni** bo'yicha ma'lumotlarni sifatli tayyorlab, **oyning 1-sanasiga qadar** Boshqarmaning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasiga taqdim etilsin.

9. Boshqarmaning Inson resurslarini rivojlanitirish va boshqarish sho'basi mudiri (**F.Xoliqov**), Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassisi (**M.Homidov**) hamda tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish **bo'limlari boshliqlariga:**

- **Joriy yilning 1-choragida** Boshqarma hamda tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozimlarda mehnat faoliyatini olib borayotgan Davlat fuqarolik xizmatchilarini O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida **masofaviy tarzda** va Vazirlik xodimlarining malakasini oshirish markazida an'anaviy **o'qitish choralari ko'rilsin.**

10. Mazkur buyruq ijrosini nazorati o'z zimnamda qoldiraman.

Boshqarma boshlig'i

Z.Ikramov

KAFOLAT XATI

Men, _____ shahar (tumani) Kambag'allikni qisqartirish va bandlik(ka ko'maklashish bo'limi) boshqarmasi _____
(lavozimdagi)

__ ish faoliyatim davomida xizmat vazifalarimni O'zbekiston Respublikasi qonun va qonun osti hujjatlariga rioya qilgan holda olib boraman.

Ish vaqtim va xizmat vazifalarimni bajarish jarayonida quyidagilarga amal qilaman:

1. Odob-axloq qoidalariga so'zsiz rioya qilishni, ichki mehnat tartibi qoidalariga va ijro intizomiga rioya qilishni, xizmat burchimni vijdonan va vakolat doirasidan chetga chiqmagan holda bajarishni, mansab vakolatimni suiiste'mol qilmaslikni o'z zimmamga olaman, fidoyi, halol va qat'iyatli bo'laman;

2. Fuqarolarni huquq va qonuniy manfaatlarini cheklash shu kabi, boshqa har qanday nojo'ya xatti-harakat (harakatsizlik)larni sodir yetilishiga yo'l qo'ymayman. Shu kabi, fuqarolardan turli xil noqonuniy "**xizmat**"larni talab qilmayman;

3. Xizmat burchimni bajarayotgan vaqtimda xizmat lavozimimdan foydalanib, moddiy manfaat ko'rish evaziga pora olmayman, rahbariyat tomonidan berilgan topshiriq va vazifalarni o'z vaqtida vijdonan bajaraman, ish vaqtida spirtli ichimliklar ichmayman, avtotransport vositasini hujjatsiz va spirtli ichimlik ichgan holda boshqarmayman, belgilangan xizmat majburiyatidan chetga chiqmayman va boshqa axloq qoidalaridan chetga chiqmayman;

4. O'zbekiston Respublikasining **Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi, Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi** va **Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi** Qonunlar, shuningdek, Vazirlikning 26.05.2023-yildagi 91-sonli buyruqlarda ko'rsatilgan talablariga muvofiq ish yuritishimni qat'iy bildiraman;

5. Agarda, xizmat faoliyatim davomida menga nisbatan pul yoki moddiy qiymatliklar yoxud boshqa turdagi noqonuniy xizmatlar taklif yetilganida tegishli tartibda rahbariyatni va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limini hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilaman;

6. Ish vaqtimdan tashqari holatda ham odob-axloq normalariga rioya etaman va xizmat vazifamdan tashqari vaqtda ham avtotransport vositasini hujjatsiz va spirtli ichimlik ichgan holda boshqarmayman;

7. Meni sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb, topilmaganligim hamda sudning qarori bilan muayyan muddatga davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash huquqidan mahrum qilinmaganligim va korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda sud tomonidan aybdor deb, topilmaganligim, shuningdek, muqaddam og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etmaganligim, bundan tashqari, menga nisbatan sog'lig'im bo'yicha davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash imkonini bermaydigan tibbiy xulosa berilmaganligi sababli, meni Davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish uchun inkor etuvchi ma'lumotlar mavjud emasligini ma'lum qilaman;

8. Agar, menga yuklatilgan vazifalar talab darajasida bajarilmagan va men tomonimdan yuqoridagi talablarga rioya qilinmagan taqdirda, qonunchilikda belgilangan tartibda jazo choralari ko'rilishi hamda men bilan tuzilgan mehnat shartnomasini mehnat qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilish bilan bog'liq bo'lgan choralari ko'rilishi haqida ogohlantirildim.

“ ” yanvar 2026-yil

(imzo)

(F.I.O.)

Boshqarmaning 0{date.day}.01.2026-yildagi
{number}-sonli buyrug‘iga 2-ilova

Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomaning

ga

(bevosita rahbarning lavozimi va F.I.O.)

(xodimning lavozimi va F.I.O.)

Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi
XABARNOMA

Men ushbu xabarnomada o‘zim va menga aloqador shaxslarning mavjud manfaatlar to‘qnashuviga oid quyidagi ma’lumotlar to‘g‘risida xabar beraman:

1. Xodimga oid ma’lumotlar:

1	Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma’lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi)	
2	Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR) (mavjud bo’lgan taqdirda)	

2. Aloqador shaxslarga oid ma’lumotlar:*

Xodimning yaqin qarindoshiga oid ma’lumotlar		
1	Familiya, ismi, otasining ismi	
2	Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma’lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi)	
3	Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR) (mavjud bo’lgan taqdirda)	
Xodim qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a’zosi bo’lsa, o’sha yuridik shaxsga oid ma’lumotlar		
1	Yuridik shaxsning nomi	
2	Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	

Xodimning yaqin qarindoshi qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki aʼzosi boʻlsa, oʻsha yuridik shaxsga oid maʼlumotlar		
1 .	Yuridik shaxsning nomi	
2 .	Soliq toʻlovchining identifikatsiya raqami (STIR)	

* Xodim unga aloqador shaxslarning (xodimning yaqin qarindoshlari yoki xodimning yaqin qarindoshlari ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qiladigan yoxud boshqaruv organi rahbari yoki aʼzosi boʻlgan yuridik shaxs) identifikatsiya ID-kartasi (biometrik pasporti), JShShIR, STIR boʻyicha maʼlumotlarni olish imkoniyatiga ega boʻlmasa, u tomonidan tegishli pozitsiyalarda «maʼlumotga ega emasman» deb izoh koʻrsatilishi mumkin.

3. Mavjud manfaatlar toʻqnashuvi boʻyicha maʼlumot

1 .	Mavjud manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida maʼlumot	
---------------	--	---

Xodimning lavozimi

Shaxsiy imzo yoki elektron raqamli imzosi

(Xodimning F.I.O.)

Toʻldirilgan sana «__» _____ 2026-yil

Xodimning bevosita rahbari

Mavjud manfaatlar toʻqnashuvini tartibga solish boʻyicha koʻrilgan chora:

Xodimning lavozimi

Shaxsiy imzo yoki elektron raqamli imzosi

(Xodimning F.I.O.)

Toʻldirilgan sana «__» _____ 2026-yil

Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi aniqlangan holatlar manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reestrda ro‘yxatga olingan sanasi va tartib raqami:

«____» _____ 2026-yil; reestr raqami _____-son.

Xodimning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyasining

Men, _____
ushbu
(familiyasi, ismi, otasining ismi va uning lavozimi)

(yillik/ishga qabul qilinayotganda/boshqa ishga o‘tkazilayotganda)
to‘ldirayotgan deklaratsiyada o‘zim va menga aloqador shaxslarning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuviga oid quyidagi ma’lumotlarni oshkor qilaman:

1. Xodimga oid ma’lumotlar

1	Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma’lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi)	
2	Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR) (mavjud bo‘lgan taqdirda)	

2. Aloqador shaxsga oid ma’lumotlar*

Xodimning yaqin qarindoshiga oid ma’lumotlar		
1	Familiya, ismi, otasining ismi	
2	Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma’lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi)	
3	Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR) (mavjud bo‘lgan taqdirda)	
Xodim qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a’zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxsga oid ma’lumotlar		
1	Yuridik shaxsning nomi	
2	Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	

Xodimning yaqin qarindoshi qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxsga oid ma'lumotlar		
1.	Yuridik shaxsning nomi	
2.	Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	

* Xodim unga aloqador shaxslarning (xodimning yaqin qarindoshlari yoki xodimning yaqin qarindoshlari ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qiladigan yoxud boshqaruv organi rahbari yoki a'zosi bo'lgan yuridik shaxs) identifikatsiya ID-kartasi (biometrik pasporti), JShShIR, STIR bo'yicha ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lmasa, tomonidan tegishli pozitsiyalarda «ma'lumotga ega emasman» deb izoh ko'rsatilishi mumkin.

3. Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumot

4. Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ma'lumotlar (agar mavjud bo'lsa)

(xodim tomonidan manfaatlar to'qnashuvi vaziyati sifatida baholanadigan boshqa holatlar ko'rsatiladi)

_____ Xodimning lavozimi	_____ Shaxsiy imzo yoki elektron raqamli imzosi	_____ (Xodimning F.I.O.)
-----------------------------	--	-----------------------------

To'ldirilgan sana «____» _____ 2026-yil

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan holatlar manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestrda ro'yxatga olingan sanasi va raqami:

«____» _____ 2026-yil; reestr raqami _____-son.

- **davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi (bundan buyon matnda xodim deb yuritiladi)** - davlat organlarida va mahalliy davlat hokimiyati organlarida, davlat muassasalarida, davlat maqsadli jamg'armalarida, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab qo'yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimi;

- **xodimga aloqador shaxslar (bundan buyon matnda aloqador shaxslar deb yuritiladi)** - xodimning yaqin qarindoshlari hamda xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

- **manfaatlar to'qnashuvi** - shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

- **yaqin qarindoshlar** - ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

Aloqador shaxslarning ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning

Men, _____, ushbu deklaratsiyada aloqador shaxs

(familiyasi, ismi va sharifi)

sifatida o'zim va xodim (ishga kirayotgan nomzodning) ehtimoliy manfaatlar to'qnashuviga oid quyidagi ma'lumotlarni ma'lum qilaman:

1.	Xodimga aloqador jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR)	
3.	Xodimga aloqador yuridik shaxsning nomi	
4.	Xodimga aloqador soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	
5.	Xodimning F.I.O. va lavozimi	
6.	Jismoniy shaxsning xodim bilan qarindoshligi haqidagi ma'lumot (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari)	
7.	Yuridik shaxsning xodim bilan aloqadorligi haqidagi ma'lumot (xodim va uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs)	

Xodimning lavozimi

*Shaxsiy imzo yoki elektron
raqamli imzosi*

(Xodimning F.I.O.)

To'ldirilgan sana

«____» _____ 2026-yil

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan holatlar manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestrda ro'yxatga olingan sanasi va raqami:

«____» _____ 2026-yil; reestr raqami _____-son.

0{date.day}.01.2026-yildagi {number}-sonli buyrug'iga **2-ilova**

Boshqarma boshlig'i

Z.Ikramov